



UDK:37.013.42:37.017.4

Jo‘rabek XAYITOV,

O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: xayitovjorabek45@gmail.com, ORCID: 0009-0001-3896-0141

“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ qoshidagi “NEFTGAZ-MALAKA” o‘quv-tadqiqot markazi rahbari S.Azimov taqrizi asosida

RESOTSIALIZATSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KOMPLEKS DIAGNOSTIKA VOSITALARI

Annotatsiya

Makolada og‘ir tarbiyali 14–19 yoshli yoshlarni resotsializatsiyalash samaradorligini baholash uchun ishlab chiqilgan kompleks diagnostika vositalari tizimi bayon etilgan. Ushbu tizim 3 yosh guruhi (14–15, 16–17, 18–19 yosh) uchun moslashtirilgan test va so‘rovnomalalar (48, 53, 59 savol), pedagog-psixolog (10 mezon), mahalla noziri (9 mezon) va huquq inspektori (9 mezon) uchun kuzatuv kartalari, ota-ona intervyusi shabloni (8+2 savol) hamda ekspert baholash varaqasi (5 ball shkalasi)dan iborat. Barcha vositalarning ichki ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti ($\alpha = 0,79-0,93$) bilan, konvergent validligi esa huquqiy ong indeksi bilan kuzatuv kartalari ballari orasidagi yuqori korrelyatsiya ($r=0,63-0,78$; $p<0,01$) orqali tasdiqlangan. Makolada diagnostika vositalarining tuzilishi, mazmuni, ishlab chiqilish bosqichlari va amaliyotda qo‘llash tartibi batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik diagnostika, resotsializatsiya samaradorligi, test, kuzatuv kartasi, intervyu, ekspert bahosi, Kronbax alfa, validlik, ishonchlilik.

КОМПЛЕКСНЫЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В статье представлена система комплексных диагностических средств для оценки эффективности ресоциализации трудновоспитуемых молодых людей в возрасте 14–19 лет. Данная система включает адаптированные для трех возрастных групп (14–15, 16–17, 18–19 лет) тесты и анкеты (48, 53, 59 вопросов), карты наблюдения для педагога-психолога (10 критериев), представителя махалли (9 критериев) и инспектора (9 критериев), шаблон интервью с родителями (8+2 вопроса) и лист экспертной оценки (5-балльная шкала). Внутренняя надежность всех инструментов подтверждена коэффициентом альфа Кронбаха ($\alpha = 0,79-0,93$), а конвергентная валидность – высокой корреляцией между индексом правосознания и баллами карт наблюдения ($r=0,63-0,78$; $p<0,01$). В статье подробно описаны структура, содержание, этапы разработки и порядок применения диагностических средств.

Ключевые слова: Педагогическая диагностика, эффективность ресоциализации, тест, карта наблюдения, интервью, экспертная оценка, альфа Кронбаха, валидность, надежность.

COMPREHENSIVE DIAGNOSTIC TOOLS FOR ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF RESOCIALIZATION

Annotation

The article presents a system of comprehensive diagnostic tools for assessing the effectiveness of resocialization of difficult-to-educate young people aged 14–19 years. This system includes tests and questionnaires adapted for three age groups (14–15, 16–17, 18–19 years) consisting of 48, 53, and 59 questions respectively, observation cards for educational psychologists (10 criteria), mahalla representatives (9 criteria), and police inspectors (9 criteria), a parent interview template (8+2 questions), and an expert assessment sheet (5-point scale). The internal reliability of all tools is confirmed by Cronbach’s alpha coefficient ($\alpha = 0.79-0.93$), and convergent validity is confirmed by a high correlation between the legal consciousness index and the scores of the observation cards ($r=0.63-0.78$; $p<0.01$). The article describes in detail the structure, content, development stages, and application procedure of the diagnostic tools.

Key words: Pedagogical diagnostics, resocialization effectiveness, test, observation card, interview, expert assessment, Cronbach’s alpha, validity, reliability.

Kirish. O‘zbekistonda og‘ir tarbiyali yoshlarni resotsializatsiyalash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [1]. Bu borada “Yoshlar daftar”, “Yoshlar balans” elektron platformasi kabi mexanizmlar yaratilgan bo‘lsa-da [2], resotsializatsiya samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan, kompleks diagnostika vositalari mavjud emas. Mavjud tadqiqotlarda [3-5] asosan alohida ko‘rsatkichlar (huquqiy bilimlar, xulq-atvor) baholangan, biroq bir necha manba (o‘qituvchi, mahalla, inspektor, ota-ona) va bir necha usul (test, kuzatuv, intervyu) asosida kompleks baholash tizimi ishlab chiqilmagan. Shu sababli, ishonchli va valid diagnostika vositalarini yaratish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi – og‘ir tarbiyali 14–19 yoshli yoshlarni resotsializatsiyalash samaradorligini baholash uchun ishlab chiqilgan kompleks diagnostika vositalari (testlar, so‘rovnomalalar, kuzatuv kartalari, intervyu shabloni, ekspert varaqasi) tizimining tuzilishi, mazmuni, psixometrik xususiyatlari (ishonchlilik, validlik) va amaliyotda qo‘llash tartibini bayon qilishdir.

Metodologiya. Diagnostika vositalarini ishlab chiqishda quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: (1) mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish va mavjud metodikalarni o‘rganish [5]; (2) test va so‘rovnomalarning dastlabki variantlarini ishlab chiqish; (3) ekspertlar (3 nafar pedagogika fanlari doktori) ishtirokida mazmuniy validlikni baholash – ekspertlar fikrlarining kelishuvi Feys koeffitsienti ($S=0,85$) va o‘rtacha ball (4,6–4,9) yordamida aniqlandi; (4) 15 nafar

respondent (5 nafar 14–15 yosh, 5 nafar 16–17 yosh, 5 nafar 18–19 yosh) ishtirokida pilot tadqiqot o'tkazish; (5) statistik tahlil (Kronbax alfa, Pirson korrelyatsiyasi) yordamida ishonchlik [8] va validlikni aniqlash [9]; (6) yakuniy variantlarni shakllantirish. Tadqiqotda 95 asosiy respondent (14–19 yoshli og'ir tarbiyali yoshlar) va 50 yordamchi respondent (pedagog-psixologlar, mahalla nozirlari, huquq inspektorlari, ota-onalar) ishtirok etgan. Statistik hisob-kitoblar

SPSS 26.0 dasturida amalga oshirilgan [10]. Test-qayta test ishonchligi 2 hafta (14 kun) oralig'ida kontrol guruhda (46 nafar) o'tkazilgan [11].

Natijalar. 1. Diagnostika vositalarining umumiy tavsifi. Ishlab chiqilgan kompleks diagnostika tizimi 6 turdagi vositalarni o'z ichiga oladi. Quyidagi 1-jadvalda ularning umumiy tavsifi keltirilgan.

1-jadval. Diagnostika vositalarining umumiy tavsifi

№	Vosita nomi	Maqsadi	Kim uchun	Tarkibi	To'ldirish vaqti
1	Yosh guruhlari uchun moslashtirilgan test va so'rovnomalar	Huquqiy ong, radikalizmga munosabat, ijtimoiy dezadaptatsiyani aniqlash	14–15, 16–17, 18–19 yoshli yoshlar	48, 53, 59 savol	25–30 daqiqa
2	Pedagog-psixolog kuzatuv kartasi	Maktab/kollejdagi xulq-atvor, intizom, munosabatlarni baholash	Pedagog-psixologlar	10 mezon (1–5 ball)	5 daqiqa/respondent
3	Mahalla noziri kuzatuv kartasi	Mahalladagi obro', ijtimoiy ishtirok, tungi yurish, oilaviy munosabatlarni baholash	Mahalla nozirlari	9 mezon (1–5 ball)	3 daqiqa/respondent
4	Huquq inspektori kuzatuv kartasi	Hisobda turish sabablari, huquqbuzarliklar soni, resotsializatsiyaga tayyorlikni baholash	Huquq inspektorlari	9 mezon (1–5 ball)	5 daqiqa/respondent
5	Ota-ona intervyusi shablони	Oilaviy muhit, bo'sh vaqt tuzilishi, huquqiy suhbatlar, kelajak rejasini aniqlash	Ota-onalar	8+2 savol (yarim strukturalashgan)	20–30 daqiqa
6	Ekspert baholash varaqasi	Respondent holatiga va metodika samaradorligiga umumiy baho berish	23 ekspert	5 ball shkalasi	5 daqiqa

2. Test va so'rovnomalar. Har bir yosh guruhi uchun huquqiy ong, radikalizmga munosabat va ijtimoiy dezadaptatsiyani baholash maqsadida differensial test va so'rovnomalar ishlab chiqilgan. Savollar soni yosh o'tishi bilan ortib boradi: 14–15 yoshlilar uchun 33 ta huquqiy ong savoli, 10 ta radikalizmga munosabat savoli va 9 ta ijtimoiy dezadaptatsiya savoli (jami 48 savol); 16–17 yoshlilar uchun mos ravishda 35, 10 va 18 savol (jami 53 savol); 18–19 yoshlilar uchun 37, 10 va 22 savol (jami 59 savol). Test savollari konvergent validlikni ta'minlash maqsadida kuzatuv kartalari mezonlari bilan o'zaro bog'liq holda ishlab chiqilgan. Har bir testning maksimal balli: huquqiy ong bloki – 100 ball, radikalizmga munosabat – 40 ball, ijtimoiy dezadaptatsiya – 36–88 ball. Interpretatsiya mezonlari: 0–33% – past, 34–66% – o'rta, 67–100% – yuqori daraja. Misol savol: "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy javobgarlik necha yoshdan boshlanadi?" (to'g'ri javob: 16 yosh).

3. Kuzatuv kartalari. Pedagog-psixolog kuzatuv kartasi 10 mezonni (darslarga qatnashish, darsdagi faollik, o'zlashtirish, o'qituvchilar bilan munosabat, tengdoshlar bilan munosabat, tartib-qoidalarga rioya qilish, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok, psixologik holat, kelajak rejasini, huquqbuzarlikka moyillik) 5 balli shkalada baholashni nazarda tutadi. Mahalla noziri kuzatuv kartasi 9 mezonni (obro', ijtimoiy ishlarda

ishtirok, tungi yurish, to'dabozlik, oilaviy munosabatlar, foydali mashg'ulotlar, topshiriqlarni bajarish, spirtli ichimliklar iste'moli, umumiy og'ir tarbiyalilik darajasi) qamrab oladi. Huquq inspektori kuzatuv kartasi 9 mezonni (huquqbuzarliklar soni, hisobda turish muddati, suhbatlarga munosabat, ma'muriy javobgarlik, og'ir jinoyat, giyohvandlik, sud choralari, resotsializatsiyaga tayyorlik, huquqbuzarlik xavfi) baholaydi.

4. Ota-ona intervyusi shablони. Intervyu yarim strukturalashgan bo'lib, pre-test bosqichida 8 asosiy savol (bo'sh vaqt tuzilishi, do'stlar nazorati, kechki vaqtda ko'chada bo'lish, oilaviy ishlarda ishtirok, huquqiy suhbatlar, kelajak rejasini, ota-ona ishonchi, yordam berish) va post-test bosqichida qo'shimcha 2 savol (metodika samaradorligi, tavsiya qilish) kiritilgan. Misol savol: "Farzandingiz bo'sh vaqtda ko'pincha nima bilan shug'ullanadi?"

5. Ekspert baholash varaqasi. 23 nafar ekspert (12 pedagog-psixolog, 6 mahalla noziri, 5 huquq inspektori) tomonidan to'ldiriladigan varaqa respondentning umumiy holatini 5 balli shkalada baholashni nazarda tutadi. Varaqa pre-test va post-test bosqichlarida qo'llaniladi.

6. Iшонchlik va validlik. Barcha diagnostika vositalarining ichki ishonchligi Kronbax alfa koeffitsienti orqali baholandi. Quyidagi 2-jadvalda natijalar keltirilgan.

2-jadval. Diagnostika vositalarining ishonchlik ko'rsatkichlari

Vosita	Savollar/mezonlar soni	Kronbax α (pre-test)	Kronbax α (post-test)
Test va so'rovnoma (14–15 yosh)	48	0,87	0,89
Test va so'rovnoma (16–17 yosh)	53	0,88	0,90
Test va so'rovnoma (18–19 yosh)	59	0,89	0,91
Pedagog-psixolog kuzatuv kartasi	10	0,84	0,86
Mahalla noziri kuzatuv kartasi	9	0,82	0,84
Huquq inspektori kuzatuv kartasi	9	0,79	0,83
Ekspert baholash varaqasi	5 ball shkala	0,91	0,93

Kronbax alfa qiymatlari 0,79–0,93 oralig'ida bo'lib, talab etilgan 0,7 chegarasidan sezilarli darajada yuqori. Post-

testda barcha vositalarning α qiymatlari biroz oshgan, bu metodika ta'sirida vositalarning yanada ishonchli bo'lib qolganini ko'rsatadi.

Konvergent validlikni baholash uchun huquqiy ong indeksi bilan kuzatuv kartalari ballari orasidagi korrelyatsiya hisoblandi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Konvergent validlik ko'rsatkichlari (Pirson r)

Ko'rsatkich	Huquqiy ong indeksi (pre-test)	Huquqiy ong indeksi (post-test)
Pedagog-psixolog kuzatuv	0,69	0,74
Mahalla noziri kuzatuv	0,58	0,63
Huquq inspektori kuzatuv	-0,72	-0,78
Ekspert bahosi	0,71	0,76

Barcha korrelyatsiyalar statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,01$) va yuqori darajada bo'lib, turli usullar bilan olingan ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini tasdiqlaydi. Huquq inspektori kuzatuv bilan salbiy korrelyatsiya ushbu kartada past ball yaxshi ko'rsatkich hisoblanishi bilan izohlanadi.

Test-qayta test ishonchliligi 2 hafta (14 kun) oralig'ida kontrol guruhda o'tkazilib, pre-test va post-test orasidagi korrelyatsiya $r = 0,79 - 0,85$ ($p < 0,01$) ni tashkil etdi. Bu o'lchov vositalarining vaqt o'tishi bilan barqarorligini ko'rsatadi.

Muhokama. Ishlab chiqilgan kompleks diagnostika vositalari tizimi bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u bir necha manbalardan (respondentning o'zi, pedagog, mahalla, inspektor, ota-ona, ekspert) ma'lumot olish imkonini beradi, bu ob'ektivlikni oshiradi. Ikkinchidan, vositalar yosh xususiyatlariga moslashtirilgan (14–15 yoshlilar uchun soddalashtirilgan til, 18–19 yoshlilar uchun mehnat huquqiga oid bloklar). Uchinchidan, barcha vositalarning yuqori ishonchliligi ($\alpha = 0,79 - 0,93$) va validligi ($r = 0,58 - 0,78$) statistik tasdiqlangan. To'rtinchidan, vositalar pre-test va post-test bosqichlarida qo'llash uchun moslashtirilgan (savollar tartibi o'zgartirilgan). Beshinchidan, ota-ona intervyusi shabloni oilaviy muhitni baholash imkonini beradi, bu resotsializatsiyada muhim omil hisoblanadi.

Mavjud metodikalar [5] bilan taqqoslanganda, ishlab chiqilgan tizim yosh guruhlariga moslashtirilganligi, turli manbalarni qamrab olganligi va statistik ishonchliligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, vositalar O'zbekistonning milliy xususiyatlari (mahalla instituti, profilaktika hisobi tizimi) hisobga olingan holda ishlab chiqilgan.

Xulosa. Og'ir tarbiyali 14–19 yoshli yoshlarni resotsializatsiyalash samaradorligini baholash uchun 6 turdagi diagnostika vositalaridan iborat kompleks tizim ishlab chiqilgan. Ushbu tizim 3 yosh guruhi uchun differensial test va so'rovnomalar (48, 53, 59 savol), pedagog-psixolog (10 mezon), mahalla noziri (9 mezon) va huquq inspektori (9 mezon) uchun kuzatuv kartalari, ota-ona intervyusi shabloni (8+2 savol) hamda ekspert baholash varaqasi (5 ball shkalasi)ni o'z ichiga oladi. Barcha vositalarning ishonchliligi Kronbax alfa koeffitsienti ($\alpha = 0,79 - 0,93$) bilan, konvergent validligi esa huquqiy ong indeksi bilan kuzatuv kartalari ballari orasidagi yuqori korrelyatsiya ($r = 0,58 - 0,78$; $p < 0,01$) orqali tasdiqlangan. Test-qayta test ishonchliligi ($r = 0,79 - 0,85$; 2 hafta oralig'ida) vositalarning barqarorligini ko'rsatadi. Taklif etilgan diagnostika vositalaridan og'ir tarbiyali yoshlar bilan ishlaydigan pedagog-psixologlar, mahalla nozirlari va huquq inspektorlari tomonidan resotsializatsiya samaradorligini baholashda foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarori, 2021 yil 18 yanvar, 23-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2025 yil 14 fevral, PQ-62-son.
3. Rustamova M.X. Og'ir tarbiyali o'smirlar bilan ijtimoiy-pedagogik ishlar mazmunini takomillashtirish // Pedagogika (O'zR FA). – 2024. – №2. – B. 45-52.
4. Abdullaeva S.S. Oilaviy tarbiyaning og'ir tarbiyalilikni shakllantirishdagi roli // Xalq ta'limi. – 2023. – №4. – B. 56-63.
5. Ingenkamp K. Pedagogical Diagnostics. – London: Falmer Press, 1977. – 320 p.
6. Anastasi A., Urbina S. Psychological Testing. – 7th ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1997. – 721 p.
7. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Shiyonov Ye.N. Pedagogika: Uchebnik. – M.: Akademiya, 2015. – 576 s.
8. Cronbach L.J. Coefficient alpha and the internal structure of tests // Psychometrika. – 1951. – Vol. 16, No. 3. – P. 297-334.
9. Campbell D.T., Fiske D.W. Convergent and discriminant validation by the multitrait-multimethod matrix // Psychological Bulletin. – 1959. – Vol. 56, No. 2. – P. 81-105.
10. SPSS Inc. SPSS Statistical Package for the Social Sciences, Version 26.0. – Chicago: SPSS Inc., 2019. – 450 p.
11. Bonta J. The Psychology of Criminal Conduct. – 5th ed. – New Providence: LexisNexis, 2010. – 800 p.